

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11180290>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lif, islohot, yangilik, izlanish, tadqiqot, kitobxonlik, intellektual, qobiliyat, ijodkorlik.

THE IMPORTANCE OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR READING LESSONS IN ELEMENTARY GRADES

Abstract. This article discusses the importance of organizing extracurricular reading classes in elementary grades.

Keywords: Education, reform, innovation, research, reading, intellectual, ability, creativity.

ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕКЛАССНЫХ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается важность организации уроков чтения вне классах в начальных классах.

Ключевые слова: Образование, реформа, инновации, исследования, чтение, интеллектуальные, способности, творчество.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, iste'dodli va iqtidorli yoshlar vatanimiz kelajagi, yurtning umidi demakdir. Kelajak yoshlari har tomonlama yetuk, bilimli va salohiyatli bo'lishida esa, pedagog kadrlarning vazifasi katta hisoblanadi. Bugungi kun yoshlarida, kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otish, ularni yuksak marralar sari intilishga chorlash, yoshlar qalbida vatanga bo'lgan mehr hissini yanada oshirish, kabilar ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish orqali, ularni turli xildagi yot g'oyalar oqimidan asrashga erishiladi. Yurtimizda yaratilayotgan keng imkoniyatlardan o'rinni foydalangan holda, yoshlar vaqtini mazmunli o'tkazish, hamda kelgusida vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan komil inson shaxsini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Jamiyatning taraqqiyotida va rivojlanishida muhim omil vazifasini o'taydigan tayanch bu ilm va yuqori saviyali yoshlar demakdir. Ta'lif –tarbiya murakkab va uzbek ravishda amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi. Ta'lif –tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan islohotlar va boshqa targ'ibotlar, yoshlar ongingin va ma'naviy salohiyatining yuksak darajada bo'lishiga ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lif to'g'risidagi qonun, mavzuga oid adabiyotlardan va yana bir qancha qo'llanmalardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Boshlang'ich sinflarda, sinfdan tashqari o'qish darslaridan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarning har tomonlama aqliy rivojlanishlari og'zaki va yozma savodxonliklarini shakllantirish, bolalar shoiri va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlarni o'quvchilarga tanishtirish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishdan iborat.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish orqali, o'quvchilarda kitobxonlikka havas uyg'otish mumkin. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari 3 bosqichdan iborat .

1-bosqich: Tayyorlov bosqichi

Bu bosqich asosan 1-sinf o'quvchilarining savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi .

Ushbu davrda o'quvchilar kichik hajmli ertak yoki hikoyalarni, o'qituvchi tomonidan eshitish orqali tasavvur doiralarida tahlil qiladilar. Qisqa hajmli asar namunalarining mazmunidan kelib chiqqan holda, o'zlariga kerakli bo'lgan xulosalarni oladilar.

2-boasqich: Boshlang'ich bosqich

Ushbu bosqich 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari har haftada 1 marotaba 45 daqiqa ichida o'tkaziladi. Boshlang'ich bosqichda o'quvchilar asar muallifi va sarlavhasi bilan tanishadilar. Asar elementar tarzda sodda mushohada qilinadi.

3-bosqich: Asosiy bosqich

Quyidagi bosqich 2-4- sinflarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda o'quvchilarda o'qish ko'nikmalari va malakalari ancha shakllangan bo'ladi. O'quvchilar mustaqil ravishda asarlarni o'qiy oladilar va erkin tahlil qila oladilar. O'qigan bir nechta asarlarini o'zaro taqqoslay oladilar. Asarda keltirilgan obrazlarni o'zaro solishtirib, yaxshini yomondan ajratish kabi sifatlarni egallaydilar.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida, o'quvchilarning og'zaki fikrlash ko'nikmalari yanada shakllanadi. Ijodiy fikrlar va o'zgacha qarashlar tizimi rivojlanadi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari, o'quvchilarni ma'naviy ongini sayqallashi bilan bir qatorda, ularni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga ham yordam beradi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtleri mazmunli va samarali o'tsa, turli yomon oqimlarga tobe bo'lib qolishdan himoyalananadilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda, ko'plab jihatlarni inobatga olgan holda, ushbu jarayonga mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. O'quvchilarda o'z-o'ziga bo'lgan motiv hissini uyg'otishda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ahamiyati katta. Sinfdan tashqari o'qish darslarini noodatiy tashkil etish kitobxonlik kechalarini o'tkazish va boshqa bir qancha ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, sinfdan tashqari darslarda mutolaa qilinadigan asarlarni o'quvchi Yoshi va saviyasiga uyg'un holda tanlashi zarur. Mavzu tanlash tamoyillarining quyidagilarga ahamiyat berish lozim.

1. Sinfdan tashqari o'qish darslarining mavzusi o'qish darslarining mavzulari bilan uyg'un bo'lishi.
2. Mavsumiy bo'lishi, ya'ni har bir faslga mos holda tanlashi.
3. O'quvchilar qiziqishlarini hisobga olinishi. Ya'ni turli qiziq sarguzashtlarni o'z ichiga qamrab olishi nazarda tutiladi.
4. O'quvchilarning yosh xususiyatlardan kelib chiqqan holda, mavzu tanlashi.

5. Tanlangan asar mazmuni o'quvchilarga ta'lif berish bilan bir qatorda , tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi

Yuqorida ko'rsatilgan jihatlarni e'tiborga olgan holda , asar mavzusi tanlanadi va o'quvchilar bilan birligida sinfdan tashqari darslarda o'qib tahlil qilinadi. Yurtimiz rahbari Sh. Mirziyoyev o'z nutqlarining birida, ma'naviyat haqida quyidagi fikrlarni keltiradilar. "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir".

Darhaqiqat ma'naviyatli inson komillik darajasiga yetadi. Yoshlarni ma'naviyatli bo'lishida esa, kitob mutolaasi tayanch vazifasini o'taydi. Bundan ko'rinish turibdiki, yoshlarni kitobga bo'lgan mehrini oshirish, bolalik davrlaridanoq ularga singdirish lozim. Ko'p kitob mutolaa qilgan bolani ongida bo'shliq bo'lmaydi. Fikrlarini aniq va teran namoyon etadi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'plab ijobjiy fazilatlarni uyg'onishiga sabab bo'ladi.

XULOSA

Umumiylig qilib aytganda, sinfdan tashqari o'qish darslari orqali, o'quvchilarni ta'limiyo sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, tarbiyaviy jihatdan ham ularni shakllantirib borishga erishish mumkin. Ma'naviyatli va salohiyatli yoshlarni, vatan kelajagi yurtning ertasi demakdir.

Shunday ekan har bir o'sib kelayotgan yosh avlod taqdiriga, e'tibor va mas'uliyat bilan qaragan holda, ularga ta'lif-tarbiya berish lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mana shunday ulkan vazifalarni bajarishda nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan yondashmog'i lozim.

Chunki boshlang'ich sinf davrida bola ko'plab jarayonni tasavvurida shakllantiradi, ko'plab yangi bilimlarni egallashga muvaffaq bo'ladi.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz " asari.
2. Y. A .Po'lotova "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma .
3. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna " O'zbek tili o'qitish metodikasi"
4. Nuriddin Qirg'izov "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma.
5. D. O'rribayeva "Ona tili fanini o'qitish metodikasi "
6. Xaitov Xamza Axmadovich " Ona tili o'qitish metodikasi " o'quv qo'llanma.
7. A. G'ulomov va boshqalar " Ona tili o'qitish metodikasi " darslik
8. Ziyonet tarmoqlari .